


Мактабгача таълим соҳасида олиб борилаётган ишлар ҳамда болалар қамровини ошириш ошириш мақсадида барпо этилаётган янги МТМ лар бўйича Пресс-тур

**Мактабгача таълим соҳасида олиб борилаётган ишлар ҳамда болалар
қамровини ошириш ошириш мақсадида барпо этилаётган янги МТМ лар
бўйича Пресс-тур**



Бугун Мактабгача таълим соҳасида олиб борилаётган ишлар ҳамда болалар қамровини ошириш мақсадида барпо этилаётган янги МТМ лар бўйича Пресс-тур ташкил этилди.

Унда Музработ тумани ҳокими Абдурашид Исмаилов, туман мактабгача таълим бўлими мудираси Лобар Жумақулова ҳамда оммавий ахборот воситалари ходимлари иштирок этишди.

Пресс-тур иштирокчилари тумандаги 1-13-сонли мактабгача таълим ташкилотларида ҳозирги кунда қурилиши таъмирлаш ишлари кетаётганига гувоҳ бўлишди.

Ушбу мактабгача таълим ташкилотлари жорий йил апрелдан иш фаолиятини бошлаш режалаштирилган.

Музработ туманида 13528 нафар мактабгача таълим ёшидаги болалар бўлиб, ҳозирги кунда 3-7 ёшдаги болаларнинг 7985 нафари ёки 59,0 фоизи мактабгача таълим билан қамраб олинган.


Бугунги кунда туманимизда 143 та мактабгача таълим ташкилотлари фаолияти йўлга қўйилган, шундан 21 та давлат ва 122 та нодавлат (шундан 7 та давлат-хусусий шериклик асосида, 114 та оилавий, 1 та хусусий) мактабгача таълим ташкилотларидир.

2023 йил охиригача қўшимча 2 та давлат-хусусий шериклик асосидаги мактабгача таълим ташкилотлари (200 нафар), 8 та оилавий мактабгача таълим ташкилотлари (200 нафар) ҳамда 6 та мажбурий бепул тайёрлов гуруҳларини ташкил этиш орқали (180 нафар), жами бўлиб 8565 нафар 66.6 фоиз болаларни қамраб олиш режалаштирилган.

Мактабгача таълим ташкилотларида 764 нафар педагог ва ишчи ва ходимлар фаолият юритмоқда. 278 нафар педагог, шундан 163 нафари (58.6) олий маълумотли педагог кадрлар.

Мактабгача таълим ташкилотларидаги педагогларнинг 30 нафари 2-малака тоифасига, 1 нафари эса 1-малака тоифасига эга. 163 нафар олий маълумотли педагог ходимлардан 32 нафари (19 %) 1-2-малака тоифасига эга педагог ходимар ҳисобланади.

Мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланувчиларга давлат таълим стандартлари бўйича таълим тарбия бериб келинмоқда.



Bugun Maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlar hamda bolalar qamrovini oshirish oshirish maqsadida barpo etilayotgan yangi MTM lar bo'yicha Press-tur tashkil etildi.

Unda Muzrabot tumani hokimi Abdurashid Ismailov, tuman maktabgacha ta'lim bo'limi mudirasi Lobar Jumaqulov hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi.

Press-tur ishtirokchilari tumandagi 1-13-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hozirgi kunda qurilishi ta'mirlash ishlari ketayotgningiga guvoh bo'lishdi.

Ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotlari joriy yil apreldan ish faoliyatini boshlash rejalashtirilgan.

Muzrabot tumanida 13528 nafar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bo'lib, hozirgi kunda 3-7 yoshdagi bolalarning 7985 nafari yoki 59,0 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan.

Bugungi kunda tumanimizda 143 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilgan, shundan 21 ta davlat va 122 ta nodavlat (shundan 7 ta davlat-xususiy sheriklik asosida, 114 ta oilaviy, 1 ta xususiy) maktabgacha ta'lim tashkilotlaridir.

2023 yil oxirigacha qo'shimcha 2 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari (200 nafar), 8 ta oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari (200 nafar) hamda 6 ta majburiy bepul tayyorlov guruxlarini tashkil etish orqali (180 nafar), jami bo'lib 8565 nafar 66.6 foiz bolalarni qamrab olish rejalashtirilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 764 nafar pedagog va ishchi va xodimlar faoliyat yuritmoqda. 278 nafar pedagog, shundan 163 nafari (58.6) oliy ma'lumotli pedagog kadrlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagoglarning 30 nafari 2-malaka toifasiga, 1 nafari esa 1-malaka toifasiga ega. 163 nafar oliy ma'lumotli pedagog xodimlardan 32 nafari (19 %) 1-2-malaka toifasiga ega pedagog xodimar hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga davlat ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim tarbiya berib kelinmoqda.

